QUL UBAYDIY SHE'RIYATINING LIRIK TABIATI

Baxshilloyeva Sabrinabonu Lazizjon qizi
BuxDU Filologiya fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: maqolada Qul Ubaydiy she'riyatining lirik tabiati, ishqiy kechinmalar, sadoqat, hijron, visol tushunchalari va g'azalning badiiy xususiyatlari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Qul Ubaydiy, mumtoz adabiyot, lirika, ishq, muhabbat, sadoqat, hijron, visol, g'azal, badiiy san'atlar.

O'zbek mumtoz adabiyoti–xalqimizning ko'p asrlik tarixi va adabiy merosini o'zida mujassam etgan bebaho xazinadir. Bu adabiyot taraqqiyotiga o'zining betakror ijodi, teran fikrlari hamda nafis she'riyati bilan munosib hissa qo'shgan ijodkorlardan biri Qul Ubaydiydir. U o'zbek mumtoz she'riyatining yuksak cho'qqiga chiqishida sezilarli darajada hissa qo'shgan, inson qalbining eng nozik va murakkab kechinmalarini badiiy so'z orqali ifodalagan shoir sifatida qadrlanadi.

Ubaydiy ijodining ko'pgina qismini lirik asarlar tashkil qiladi. Shoirning g'azal, ruboiy, qit'a va boshqa janrlardagi she'rlarida insonning ichki dunyosi, uning orzu-armonlari va sog'inchi, shuningdek hayot haqidagi fikrlari keng o'rin oladi. Ular orasida eng yuksak o'rinni egallaydigan va alohida mavqega ega bo'lgan tushuncha, shubhasiz, ishqdir. Mumtoz adabiyot an'analariga ko'ra ishq tushunchasi ikki–dunyoviy va ilohiy ma'noda talqin qilinadi.

Shoir ijodida yor obrazi ba'zan go'zal mahbuba, ba'zan inson intiladigan oliy haqiqat sifatida namoyon bo'ladi. Uning uchun muhabbat shunchaki bir tuyg'u emas, u insonni sinovdan o'tkazuvchi, uning qalbini poklovchi va ma'naviy jihatdan yuksaltiruvchi kuchdir. Shu bois Qul Ubaydiy she'riyatida sevgi bilan bog'liq kechinmalar bir-biridan ajralmagan holda namoyon bo'ladi. Hijron iztirobi bilan visol umidi, ayriliq dardi bilan sadoqatga intilish ichki kechinmalarning uyg'unligini ifodalaydi. Shoirning ishqiy lirikasida ana shu nozik va murakkab kechinmalar samimiy ifodalangani uning she'riyatiga o'ziga xos ta'sirchanlik baxsh etadi. Bu jihatlarni Ubaydiyning "Yor istamakim, olam aro yor topilmas…" misralari bilan boshlanuvchi g'azali misolida yanada yaqqol ko'rish mumkin:

Yor istamakim, olam aro yor topilmas,
Topilsa dag'i mushfiqu g'amxor tolilmas [2,10]

Ushbu matla'da oshiq uchun yorning naqadar noyob ekani ifodalanadi. Shoirning fikricha, dunyoda vafodor yor topilishi muammo, biroq topilgan taqdirda ham aynan mehribon, g'amxo'r insonni topish qiyin. Baytdagi "mushfiq" va "g'amxo'r" so'zlari mazmunan bir-biriga yaqin bo'lib, tanosub san'atini hosil qiladi. Ushbu so'zlar orqali yorning mehribonligi va dardkashligi yanada ta'sirchan ifodalangan. Keyingi baytda oshiqning muhabbati yanada yuksak darajada tasvirlangan:

Axtarsang agar bir yaratib ikki jahonni,
Mendek senga bir zoru giriftor topilmas. [2,10]

Ubaydiy mazkur misralarda ma'shuqaga murojaat etar ekan, o'zining ishq yo'lidagi sadoqati va muhabbatining beqiyosligini ta'kidlaydi. Shoir qo'llagan "ikki jahon" ifodasi ishq ko'lamini keng miqyosda ifodalashga xizmat qilib, oshiqning ma'shuqaga bo'lgan muhabbati va unga asirligini

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

kuchaytirib ko‘rsatadi. Natijada, misralarda mubolag‘a san’ati orqali oshiq kechinmalarining teranligi, ishqining cheksizligi hamda o‘zga oshiq bilan qiyoslab bo‘lmaydigan darajadagi sadoqati badiiy ifodasini topgan.

G‘azalning keyingi baytida ma’shuqaning jozibasi va maftunkorligi uning ko‘zlari tasviri orqali badiiy ifodalanadi:

Hushyor netarsen tilabon, ey ko‘zi usruk,
Mastona ko‘zing davrida hushyor topilmas. [2,10]

Ubaydiyning mazkur baytida ishqning inson ruhiyati va idrokiga ko‘rsatadigan ta’siri ma’shuqaning ko‘zlari obrazi orqali ifodalangan. Shoir “ey ko‘zi usruk” birikmasi bilan yorning mastona nigohini nazarda tutadi. Bu yerda “usruk” so‘zi mast, mastona holatdagi ma’nolarni anglatib, ma’shuqa ko‘zlarining maftunkorligi va jozibasini ta’kidlaydi. Baytdagi “Hushyor netarsen tilabon” misrasi oshiqning ma’shuqa nigohi qarshisida hushyorlikni izlashni ma’nosiz deb bilishini anglatadi. “Mastona ko‘zing davrida hushyor topilmas” misrasida esa yor ko‘zlarining ta’siri shu qadar kuchliki, uning nigohi hukmron bo‘lgan makonda hech kim o‘zini aqlan va ruhan xotirjam tuta olmaydi. Shoir bu orqali ishqning inson irodasini o‘ziga bo‘ysundiruvchi qudratini badiiy ifodalaydi. Baytda tashbeh, mubolag‘a va istiora kabi badiiy tasvir vositalarining mazmuniy imkoniyatlari namoyon bo‘ladi. Xususan, ma’shuqa ko‘zlarining mastlik holati bilan bog‘lanishi uning oshiq qalbiga ko‘rsatadigan kuchli ta’sirini obrazli tarzda ochib beradi. “Hushyor” va “mastona” tushunchalari o‘rtasidagi mazmuniy qarama-qarshilik esa baytning badiiy ta’sirchanligini oshiradi. Natijada, Ubaydiy ishqni nafaqat hissiy kechinma, balki insonning ong-u idrokini o‘zgartiruvchi ruhiy kuch sifatida tasvirlaydi. Bundan tashqari, “hushyor”, “usruk” hamda “mastona” so‘zlari o‘zaro qarama-qarshi qo‘yilib, tazod san’ati vositasida tasvirning ta’sirchanligi oshirilgan.

To‘rtinchi baytda shoir yorni sevadiganlar ko‘p bo‘lishini, lekin ma'shuqasi hajrida jonini fido qiladigan unga o‘xshaganchalik vafodor yo‘qligini ta'kidlab o‘tadi:

Ko‘p yor agarchi topilur valekin,
Jon berguchi men kabi vafodor topilmas. [2,10]

Mazkur baytida oshiqning ma’shuqaga bo‘lgan sadoqati, muhabbatining samimiyligi va ishq yo‘lidagi fidoyiligi badiiy ifodasini topgan. Shoir birinchi misrada dunyoda ma’shuqa uchun ko‘plab yorlar topilishi mumkinligini e’tirof etadi. Biroq ikkinchi misrada o‘zining alohida fazilatini ta’kidlab, o‘zi kabi vafodor, hatto yor yo‘lida jonini fido qilishga tayyor oshiqni topish mushkul ekanini qayd etadi. Baytdagi “jon berguchi” ifodasi oshiqning muhabbat yo‘lidagi fidoyiligini, o‘z manfaatlaridan kechib bo‘lsa-da, ma’shuqaga sadoqat ko‘rsatishga tayyorligini anglatadi. “Vafodor” so‘zi esa baytning mazmuniy markazini tashkil etib, oshiqning asosiy ma’naviy fazilati sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir uchun chin muhabbatning mezoni shunchaki yor bo‘lish emas, balki unga so‘nggi nafasgacha sodiq qolishdir. Baytda tazod va mubolag‘a san’atlarining mazmuniy imkoniyatlari kuzatiladi. Ko‘plab yorlarning mavjudligi bilan o‘ziga xos vafodor oshiqning kamyobligi o‘rtasidagi qarama-qarshilik lirik qahramonning o‘ziga xosligini ochib beradi. “Jon berguchi” birikmasi orqali esa oshiqning sadoqati eng yuqori darajaga ko‘tarilib, mubolag‘ali tarzda ifodalanadi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Umuman olganda, mazkur baytda Ubaydiy chin ishqning mohiyatini vafodorlik, fidoyilik va ma'naviy sobitlik tushunchalari orqali yoritadi. Lirik qahramon o'zining muhabbatdagi sadoqatini boshqa oshiqlarnikidan ustun qo'yish orqali ma'shuqaga bo'lgan tuyg'ularining beqiyosligini ta'kidlaydi. Shu jihatdan bayt shoirning ishqiy qarashlarini va mumtoz she'riyatda vafodor oshiq obraziga berilgan yuksak badiiy bahoni namoyon etadi.

Oshiq o'zining vafo va fidoyilikdagi darajasini ko'rsatish maqsadida "men kabi" iborasidan foydalanib tashbehni hosil qilgan.

G'azal maqta'sida Ubaydiy o'z shaxsiyatiga "telba Ubaydiy" deya murojaat qilib, yor diydori o'tkinchi dunyoda eng katta ne'matligi, shu sababli bu diydorning har bir lahzasini qadrlash lozimligini aytadi:

Diydor g'animat turur, ey telba Ubaydiy,
Diydorida ayrilmaki, diydor topilmas. [2,10]

So'nggi misralarda yozilgan "diydor" so'zining uch marta takrorlanishi sevgan insoni bilan ko'rishish naqadar bebaho ekanligini odamlar shuuriga singdiradi va bu orqali takrir san'atini ifodalaydi.

Qul Ubaydiyning mazkur g'azalni yaratishdan ko'zlagan badiiy maqsadi chin muhabbat, sadoqat va fidoyilik mohiyatini yoritishdan iborat. Shoir ma'shuqaning tengsiz go'zalligi va betakrorligini, oshiq qalbida kechayotgan tuyg'ularning cheksizligini hamda haqiqiy ishq sohibining yor yo'lida har qanday fidoyilikka tayyor ekanini ta'sirchan badiiy vositalar orqali ifodalaydi. Ayniqsa, diydor ne'matining g'animatligi bilan bog'liq qarashlar g'azalning falsafiy-axloqiy mazmunini teranlashtiradi. Ushbu g'oya insonni yaqinlari bilan o'tadigan lahzalarning qadriga yetishga, o'zaro mehr-oqibat va muhabbat rishtalarini mustahkamlashga, samimiy munosabatlarni asrab-avaylashga undaydi. Shu jihatdan g'azal nafaqat ishqiy kechinmalar ifodasi, balki insoniy sadoqat, ma'naviy kamolot va munosabatlar qadri haqidagi umuminsoniy mazmunni mujassam etgan badiiy asar sifatida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adizova I. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan. 2009. –B.248.
2. Ubaydiy. Vafo qilsang. Toshkent, 1994

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.